



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA				
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна		Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi		O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich		Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich		Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi		Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich		Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich		Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li		Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович		АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi		Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna		Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich		Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich		Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna		O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли		Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович		Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович		Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat		Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli		Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна		Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## KICHIK BIZNES TIZIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI MODELLASHTIRISH BO‘YICHA ZAMONAVIY XORIJ TAJRIBASI

**Atamuratova Gulrux Muzafarovna**



*Termiz davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchi*

*email: [gul.ruh@mail.ru](mailto:gul.ruh@mail.ru)*

*ORCID: [0000-0002-1166-6030](https://orcid.org/0000-0002-1166-6030)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorijiy tajribalar tahlil qilingan. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiya tajribalari asosida kichik biznesni rivojlantirishning institutsional mexanizmlari, innovatsion yondashuvlari va davlat qo‘llab-quvvatlash tizimlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlar aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, xorijiy tajriba, modellashtirish, innovatsiya, institutsional mexanizm, iqtisodiy rivojlanish, eksport, bandlik.

## СОВРЕМЕННЫЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ИЗУЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СУЩНОСТИ СИСТЕМ МАЛОГО БИЗНЕСА И ИХ МОДЕЛИРОВАНИЯ

**Атамуратова Гулрух Музафаровна**

*Независимый исследователь из*

*Государственного университета Термеза.*

*электронная почта: [gul.ruh@mail.ru](mailto:gul.ruh@mail.ru)*

*ORCID: [0000-0002-1166-6030](https://orcid.org/0000-0002-1166-6030)*

**Аннотация:** В данной статье исследуются экономическая сущность систем малого бизнеса и современные зарубежные подходы к их моделированию. На основе опыта США, Германии, Японии, Южной Кореи, Китая и Турции проанализированы институциональные механизмы развития малого бизнеса, инновационные подходы и системы государственной поддержки. В результате исследования определены эффективные механизмы, которые могут быть адаптированы к условиям Узбекистана.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, зарубежный опыт, моделирование, инновации, институциональный механизм, экономическое развитие, экспорт, занятость.

## MODERN FOREIGN EXPERIENCE ON THE ECONOMIC ESSENCE OF SMALL BUSINESS SYSTEMS AND THEIR MODELING

**Atamuratova Gulrux Muzafarovna**

*Independent researcher at*

*Termez State University*

*e-mail: [gul.ruh@mail.ru](mailto:gul.ruh@mail.ru)*

*ORCID: [0000-0002-1166-6030](https://orcid.org/0000-0002-1166-6030)*

**Annotation:** This article examines the economic essence of small business systems and modern foreign approaches to their modeling. Based on the experience of the United States, Germany, Japan, South Korea, China, and Turkey, institutional mechanisms, innovative approaches, and government support systems for small business development are analyzed. The study identifies effective mechanisms that can be adapted to the economic conditions of Uzbekistan.





*Keywords: small business, entrepreneurship, foreign experience, modeling, innovation, institutional mechanism, economic development, export, employment.*

### **Kirish**

Kichik biznes zamonaviy bozor iqtisodiyotining eng muhim va dinamik rivojlanayotgan sektorlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor iqtisodiy o‘shni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta‘minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Jahon amaliyotida kichik biznes korxonalar iqtisodiy tizimning moslashuvchan va innovatsion qismi sifatida e‘tirof etilib, ular iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarga tez moslashish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulot, eksport hajmi va bandlik ko‘rsatkichlarining sezilarli qismini shakllantiradi. Shu sababli ushbu sektor faoliyatini chuqur o‘rganish, uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va kelajakdagi holatini prognozlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy kabi mamlakatlarda kichik biznes tizimlarini boshqarish va rivojlantirishda ekonometrik modellashtirish, raqamli tahlil, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu tajribalar biznes faoliyatining samaradorligini oshirish, tavakkalchiliklarni kamaytirish va strategik qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Shu jihatdan xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar sharhi**

Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyatini o‘rganish va ularni modellashtirish masalalari iqtisodiyot fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tadqiqotchilar kichik biznesning iqtisodiy o‘sh, bandlik, innovatsion rivojlanish va hududiy taraqqiyotga ta‘sirini turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganib kelmoqdalar.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o‘rta biznes subyektlari dunyo bo‘yicha korxonalarining 90 foizdan ortig‘ini tashkil etishi hamda global bandlikning qariyb 50 foizini ta‘minlashi qayd etilgan [1]. Mazkur tadqiqotlar kichik biznes iqtisodiy barqarorlik va inklyuziv o‘shning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

OECD ekspertlari kichik biznes rivojlanishining asosiy omillari sifatida innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini ko‘rsatadilar [2]. Ularning fikricha, raqamlashtirish jarayonlari kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish va bozor raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kichik biznes faoliyatini modellashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlarda ekonometrik yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Xususan, Acs va Szerb tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik regressiya modellari asosida baholangan bo‘lib, tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi iqtisodiy o‘shga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan [3].

Audretsch va Belitski tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion ekotizim va kichik biznes rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Mualliflarning fikricha, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi kichik biznes subyektlarining bozor imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi [4].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes faoliyatini modellashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalarining ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Bughin va hamkorlari ma‘lumotlarni tahlil qilishning zamonaviy usullari korxonalar faoliyatini prognozlash va risklarni boshqarishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini asoslab berganlar [5].

Jahon Banki tadqiqotlarida esa biznes muhitining sifati va institutsional omillarning kichik biznes rivojlanishiga ta‘siri baholangan. Natijalarga ko‘ra, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi siyosat yuritilayotgan mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yuqori bo‘lishi





aniqlangan [6].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini o‘rgangan Muller va hamkorlari kichik biznes faoliyatini baholashda panel ma’lumotlar modellari va ko‘p omilli regressiya usullarining samaradorligini ko‘rsatib berganlar [7]. Ushbu yondashuv korxonalarining iqtisodiy natijalariga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi.

Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirishda raqamli moliya va elektron tijoratning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron platformalardan foydalanish korxonalar daromadlarining o‘shishiga xizmat qiladi [8].

So‘nggi yillarda BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi va innovatsion rivojlanish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kichik biznesni modellashtirishda raqamli ko‘rsatkichlarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatmoqda [9].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes tizimlarini modellashtirishda ekonometrik usullar, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish korxonalar faoliyatini samarali boshqarish hamda rivojlanish istiqbollari prognozlash imkonini beradi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham kichik biznes tizimlarini baholash va prognozlashning zamonaviy modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish zarur.

### **Tadqiqotlar metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish va xorijiy mamlakatlar tajribasini baholash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Xususan, nazariy tahlil usuli yordamida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni va vazifalari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlarning kichik biznesni rivojlantirish va modellashtirish bo‘yicha tajribalari taqqoslandi. Statistik tahlil yordamida kichik biznes faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar baholandi.

Shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilib, kichik biznes rivojlanishiga investitsiyalar, kreditlar, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, trend modellari va prognozlash usullarining nazariy asoslari o‘rganildi.

Metodologik yondashuvning asosiy maqsadi kichik biznes tizimlarining rivojlanish mexanizmlarini aniqlash hamda xorij tajribasida qo‘llanilayotgan samarali modellashtirish usullarini umumlashtirishdan iborat bo‘ldi.

### **Tahlil va natijalar**

Kichik biznes iqtisodiyotning eng faol va moslashuvchan sektori hisoblanib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish hamda hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirishda iqtisodiy-statistik modellashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Ushbu modellar korxonalar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, rivojlanish tendensiyalarini prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xorijiy amaliyotda, xususan, AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda kichik biznes faoliyatini baholashda regressiya tahlili, panel ma’lumotlar modellari, klaster tahlili hamda sun’iy intellektga asoslangan prognozlash usullaridan foydalanilmoqda. Ushbu yondashuvlar korxonalar daromadlari, investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda tadbirkorlik





muhiti kiradi. Xorijiy mamlakatlarda ushbu omillar asosida shakllantirilgan ekonometrik modellar kichik biznesning kelgusi rivojlanish ko‘rsatkichlarini yuqori aniqlik bilan prognozlashga xizmat qilmoqda.

Modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish darajasining oshishi kichik biznes subyektlari daromadlarining o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Elektron savdo platformalaridan foydalanayotgan korxonalarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmlari an’anaviy usullarda faoliyat yuritayotgan korxonalariga nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar korxonalarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Klaster tahlili natijalari kichik biznes subyektlarini iqtisodiy faoliyat samaradorligi bo‘yicha bir necha guruhlariga ajratish imkonini berdi. Yuqori samaradorlikka ega korxonalar odatda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik va eksport faoliyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Past samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega korxonalarda esa moliyaviy resurslar yetishmasligi va boshqaruv tizimining sust rivojlanganligi kuzatiladi.

Olib borilgan tahlillar asosida kichik biznes tizimlarini modellashtirish iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Zamonaviy xorijiy tajriba iqtisodiy-statistik modellarni raqamli texnologiyalar va katta ma‘lumotlar (Big Data) bilan integratsiyalash orqali prognozlash sifatini yanada oshirish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, kichik biznes tizimlarini modellashtirishda zamonaviy ekonometrik va raqamli yondashuvlardan foydalanish korxonalar faoliyatining barqarorligini ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli O‘zbekistonda ham kichik biznesni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy tajriba va modellashtirish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kichik biznes tizimlarini modellashtirish bo‘yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qaror qabul qilish jarayonlari ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, raqamli platformalar va biznes registrlari ma‘lumotlaridan foydalanish korxonalarining moliyaviy holatini, faoliyat samaradorligini hamda bozor tendensiyalarini real vaqt rejimida baholash imkonini bermiqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida kichik biznes faoliyatini modellashtirishda panel ma‘lumotlar tahlili va prognozlash modellaridan foydalanish natijasida korxonalarining yashovchanlik darajasi, investitsion faolligi va eksport salohiyatini baholash imkoniyati yaratilgan. Natijada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari aniq maqsadli shakllantirilmoqda va resurslardan foydalanish samaradorligi ortmoqda.

Shuningdek, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (Big Data) texnologiyalarining qo‘llanilishi kichik biznes faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni tezkor aniqlash hamda kelgusidagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini yuqori aniqlikda prognozlash imkonini bermiqda. Bu esa biznes risklarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar asosida kichik biznes tizimlarini modellashtirish iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini baholash, hududlar kesimida rivojlanish tafovutlarini aniqlash hamda samarali biznes siyosatini shakllantirishning muhim ilmiy-uslubiy vositasi ekanligi aniqlandi. Shu sababli zamonaviy xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish va statistik modellashtirish usullarini keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari kichik biznes tizimlari iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratadi, balki iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini ta‘minlaydi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va raqobat muhitini rivojlantiradi.





Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, kichik biznesning barqaror rivojlanishi zamonaviy modellashtirish usullari, raqamli texnologiyalar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unligi orqali ta‘minlanadi. Ekonometrik modellar va raqamli tahlil vositalari biznes faoliyatini prognozlash va samarali boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

### **Takliflar**

1. Kichik biznes rivojlanishini baholash va prognozlashda ekonometrik modellashtirish usullaridan keng foydalanish zarur.
2. Kichik biznes bo‘yicha yagona integratsiyalashgan statistik ma‘lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.
3. Sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalarini tadbirkorlik faoliyatiga joriy etishni rag‘batlantirish lozim.
4. Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish asosida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.
5. Hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishini baholovchi ekonometrik modellarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.
6. Raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish lozim.
7. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, zamonaviy xorij tajribasi kichik biznes tizimlarini rivojlantirishda modellashtirish usullarining ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Bank. *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs’ Access to Finance and Finding Innovative Solutions to Unlock Sources of Capital*. Washington, DC, 2024.
2. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing, 2024.
3. Zoltan J. Acs, Laszlo Szerb. *The Digital Entrepreneurial Ecosystem and Economic Growth*. Journal of Business Research, 2023.
4. David B. Audretsch, Maksim Belitski. *Innovation, Entrepreneurship and Economic Development*. Small Business Economics, 2024.
5. Jacques Bughin et al. *Artificial Intelligence and Data Analytics for SME Development*. McKinsey Global Institute Report, 2023.
6. World Bank. *Business Ready Report 2024*. Washington, DC, 2024.
7. Paul Muller et al. *Annual Report on European SMEs 2023/2024*. European Commission, Brussels, 2024.
8. Asian Development Bank. *Asian SME Monitor 2024: Digital Transformation and SME Growth*. Manila, 2024.
9. UNCTAD. *Digital Economy Report 2024: Shaping an Inclusive Digital Future*. Geneva, 2024.

